



Istiqlol va Adabiyotshunosligimizning Ba'zi Muammolari (Adabiyot Darsliklarimiz Haqida Mulohazalar)

Bağımsızlığımızın ve Edebiyat Çalışmalarımızın Bazı Sorunları
(Edebiyat Ders Kitaplarımıza İlişkin Açıklamalar)

Akbar JUMANOV

ORCID: 0009-0003-2079-7918

10.5281/zenodo.15767328

ANNOTATSIYA

Adabiyot va san'atimiz mustamlaka davridagi hukmron mafkuraning "sinfiylik", "partiyaviylik" kabi dogmalaridan xalos bo'lib, ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni va ahamiyatini chuqur anglash tamoyillari barqarorlashmoqda. Badiiy ijod va ilmiy-nazariy tafakkurimizning milliy asos-o'zaniga qaytayotganligi, ulug' mutafakkirlar, adib va shoirlarimizning adabiy-estetik qarashlarini xolisona o'rganilayotgani ijobiy natija bermoqda. Ko'p asrli jahon adabiyoti tarixi va zamonaviy adabiyot taraqqiyotining asosiy tamoyillari keng o'rganilib, yirik ilmiy-nazariy tadqiqotlar, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratib kelinmoqda. Ushbu maqolada quyida Adabiyot darsliklari bilan bog'liq ba'zi muammolar yoritiladi.

Kalit So'zlar: Adabiyot, darsliklar, "O'zbek adabiyoti", "Adabiyot nazariyasi", "Adabiy tanqid", Sovet davri, Istiqlol yillari, Abdurauf Fitrat, Abdulla Oripov, o'zbek she'riyati, mustabid imperiya.

ONSOZ

Edebiyatimiz va san'atimiz, "sinifchilik", "particilik" gibi sömürge döneminin egemen ideolojisinin dogmalarından kurtulmuş ve sosyo-manevi yaşamdaki yerlerinin ve önemlerinin derinlemesine anlaşılması ilkeleri daha istikrarlı hale geliyor. Sanatsal yaratımımızın ve bilimsel-teorik düşüncemizin ulusal temellerine dönmesi ve büyük düşünürlerimizin, yazarlarımızın ve şairlerimizin edebi-estetik görüşlerinin nesnel olarak incelenmesi olumlu sonuçlar veriyor. Dünya edebiyatının asırlık tarihi ve modern edebiyatın gelişiminin temel prensipleri geniş çapta incelenmekte, önemli bilimsel ve teorik çalışmalar, ders kitapları ve çalışma kılavuzları oluşturulmaktadır. Bu makalede Edebiyat ders kitaplarıyla ilgili bazı konulara değinilecektir.

Anahtar Kelimeler: Edebiyat, ders kitapları, "Özbek edebiyatı", "Edebiyat teorisi", "Edebiyat eleştirisi", Sovyet dönemi, Bağımsızlık yılları, Abdurauf Fitrat, Abdulla Oripov, Özbek şiiri, otokratik imparatorluk.

İlgili Yazar: Akbar JUMANOV

Tadqiqotchi-o'qituvchi,
jumanovakbar574@gmail.com, Jizzakh
DPU, Uzbekistan

Başvuru Tarihi/Received: 22.12.2024
Kabul Tarihi/Accepted: 03.02.2025

KIRISH

Darsliklarni tayyorlashimizda ham Fitrat kabi allomalarimizning ilmiy-nazariy asarlaridan ulgi olib, rus adabiyotshunoslarining darsliklaridan ham ijodiy va tanqidiy foydalaniladi. “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. [Mirziyoyev,2019:17] Ayni vaqtda, taniqli adabiyotshunoslarimizning umumta‘lim maktablari va oliy o‘quv yurtlari uchun “O‘zbek adabiyoti” va Adabiyot nazariyasi bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalari o‘rganilib, ularning boy tajribalari, ilmiy-nazariy qarashlari va metodik tavsiyalariga tayanamiz. Zero, sho‘rolar tuzumidagi siyosiy-mafkuraviy taqiqlar muhitida bo‘lsa-da, mutaxassis olimlarimiz ezgu niyatlar bilan yaratgan darslik va qo‘llanmalar bir necha avlod qalbida adabiyotga mehr-muhabbat uyg‘otib, ularning ong-tafakkuri, hayotga qarashlari shakllanishiga salmoqli ta‘sir ko‘rsatib kelganligini aslo inkor etib bo‘lmaydi. Xususan, mazkur darslik-qo‘llanmalar va adabiyotshunoslikka doir asarlar biz uchun ham ilmiy-metodologik namuna bo‘lib xizmat qilganligini e‘tirof etish lozim. Shuningdek, adabiy ta‘limda uzviylik, izchillikka amal qilib, adabiyot namunalari, janrlari va she‘riy san‘atlarni o‘rganishda Istiqlol yillari yaratilgan maktab darsliklaridagi mumtoz manbalardan ko‘proq foydalanish maqbul deb o‘ylaymiz. Ushbu darsliklarda mavzuga doir zarur adabiy-nazariy tushuncha va ma‘lumotlarlar berilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga turli yillari yaratilib, hozirgi kunda ham foydalanilib kelinayotgan “O‘zbek adabiyoti”, “Adabiyot nazariyasi” va “Adabiy tanqid” darsliklaridagi siyosiy mafkura bilan bog‘liq ayrim noob‘ektiv qarashlar, bahsli talqinlar Istiqlol davri adabiyotshunosligi talablari asosida qayta baholanishni taqozo etadi. Ularni qayta baholash nafaqat adabiyot darsliklari yoxud tanqid - adabiyotshunoslikdagi kemtikliklarni to‘g‘rilashga yordam beradi, balki ular Inson beqiyos ulug‘lanayotgan va milliy, diniy aqida va urf-odatlarimiz qadrlanayotgan yangi O‘bekistonimiz ma‘naviyati va umuminsoniy fazilatlar bardavomligi uchun ham bir saboq bo‘lib xizmat qiladi. Adabiy ta‘limda salmoqli o‘rin tutgan mazkur darsliklarda ayrim mavzu-muammolarni yoritishda zamonasozlik oqibati o‘laroq, noxolis yondashuv, mafkuraviy talqinlar, ba‘zi noaniqliklar ham mavjud. Ularni bartaraf etish ham bugungi tanqid va adabiyotshunoslik fanining dolzarb vazifalaridan sanaladi. Chunonchi, 1978-1979-yili yaratilgan va adabiy-estetik tafakkur olamida jiddiy voqea bo‘lgan *ikki tomlik “Adabiyot nazariyasi”* dagi ayrim talqin-qarashlar bugungi kun adabiyotshunosligi mezonlariga nomuvofiq ekanligi ayon. Yoki mualliflar jamoasining o‘zbek va rus tilida nashr etilib, ko‘p yillar asosiy darslik bo‘lib kelgan *ikki tomlik “O‘zbek sovet adabiyoti tarixi ocherklari”* (1962,1967), professorlar S.Mirzayev va X.Doniyorovning “*O‘zbek sovet adabiyoti*” (1967) hamda professorlar N.Xudoyberganov va A.Rasulovning “*O‘zbek sovet adabiy tanqidchiligi*” (1990) darsliklarida ham ayrim mavzu-muammolarni yoritishda marksizm-leninizm ta‘limoti nuqtai nazaridan yondashilgan. Ularda Adabiyot va tanqid–adabiyotshunoslikning qator masalalari, asosan, hukmron siyosiy mafkuraga va Oktabr revolyutsiyasi g‘alabalariga bog‘lab, biryoqlama o‘rganilgan. Ushbu darsliklar va ko‘plab ilmiy-nazariy asarlarda XX asr adabiyoti va tanqidchiligi shakllanishi, rivoji Oktabr inqilobi samarasi deb talqin etilgan:”*Oktabr inqilobining*

o'zbeklar yurtida g'alaba qozongani haq!..Ilmiy-estetik ijodning turi–adabiy tanqid va adabiyotshunoslik Oktyabr inqilobidan keyin tug'ila boshladi", -deyiladi. [Xudoyberganov N.,Rasulov A,1990:37]

ASOSIY QISM

Shuningdek, yirik adabiyotshunoslarimiz yaratgan *"Adabiyot nazariyasi"* ning 2-tomida *"Satiraning taraqqiyot bosqichlari"* bobida ham *"O'zbek sovet adabiyoti, shu jumladan, satira Ulug' Oktabrdan nur olib shakllandi va rivojlandi"* (323-bet) deb yozilgan. Sotsializm mafkurasi stereotip-shiorlariga moslashtirilgan bunday biryoqlama xulosalar ham tarixiy va ilmiy haqiqatga ziddir. Zero, satira va yumor-hajviyot qadimiy folklorimizda ham, Yassaviy, Navoiylar va keyingi asrlarda yashab-ijod etgan Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, So'fizodalar ijodida ham muhim o'rin tutganligi adabiyotimiz tarixidan ma'lum. Afsuski, sovet davridagi darsliklarimizda mumtoz adabiyotimiz, xususan, Navoiy davri tanqid-adabiyotshunosligi an'analari va ilmiy-nazariy manbalariga ham yetarli e'tibor berilmagan. Natijada badiiy ijod va adabiyotshunoslikning asosiy mavzulari, xususan, *"shakl va mazmun birligi muammosi ham 19-asrda marksizm-leninizm nazariyotchilari tomonidan hal etib berilgan"* kabi soxta-uydirma "haqiqat"lar darslik-qo'llanmalarimizda ilgari surildi. Ko'plab adabiy-nazariy manbalar* va darslik-majmualarda *"eng ilmiy, eng izchil ta'limot - marksizm-leninizm sovet adabiyoti, tanqid va adabiyotshunosligi uchun taraqqiyot yo'lini ko'rsatuvchi yo'lchi yulduz"*, -degan shiorbozlik - madhiyabozlik avj oldi.* Shu tariqa sobiq sho'ro davrida ilmiy-fan va adabiyotning barcha yutuq-muammolari hukmron sotsialistik tuzum siyosatining sinfiylik va partiyaviylik prinsiplari nuqtai nazaridan talqin etib kelindi. Hatto yirik adiblar va ulkan tanqidchi-adabiyotshunoslarimiz ham *"XX asr o'zbek adabiyoti va she'riyati 1917-yil Oktyabr revolyutsiyasi mevasi, Lenin va partiya dahosi bilan gurkirab o'sdi"* degan biryoqlama xulosalarni yozishga majbur bo'lganligi endilikda o'quvchi-yoshlarimizga ham ayon. Ya'ni tariximizni va jadidlar ijodini yangicha nigoh bilan o'rganayotgan bugungi yosh kitobxonlar atoqli adiblarimiz va adabiyotshunoslarimiz tomonidan yaratilgan *"Adabiyotimizning yarim asri"* kabi salmoqli to'plamlardagi quyidagi "hamdu sanolar"dan ham hayron bo'lmasligi mumkin: *"Xarob va qashshoq Turkiston atigi ellik yil ichida farovon va badavlat o'lkaga aylandi. Bularning barchasi ulug' Oktyabrning sharofati bilan bo'ldi. Oktyabr Vatanimizdagi boshqa xalqlar qatori o'zbekni ham asriy zulmdan ozod qildi, uni jaholat va nodonlik iskanjasidan qutqarib, o'z taqdirining xo'jasiga aylantirdi. Adabiyotimiz Oktyabr tufayli, Lenin partiyasining doimiy g'amxo'rliqi ostida paydo bo'lgan va kamol topgan buyuk ma'naviy boylikdir. Biz adabiyotimiz ravnaq ini haqli ravishda revolyutsiya samaralari bilan, sotsialistik tuzumning hayotbaxsh kuchi bilan izohlaymiz. Hamza va Sadridin Ayniyning revolyutsion qo'shiqlari va marshlari o'zbek sovet poeziyasining rivojiga asos bo'ldi."* [Normatov U,1967:160] Albatta, mustabid tuzum, hukmron mafkura talablari bilan bitilgan bunday soxta talqin va madhiyabozliklar uchun adabiyotimizning katta avlod vakillari va darsliklarimiz mualliflarini malomat qilish adolatdan bo'lmaydi. [Mirzaev S.,Doniyorov X,1967:7]

Aslida, adabiyot va san'at rivojiga to'siq bo'lib kelgan va ijod erkinligini bug'uvchi mafkuraviy siyosat nafaqat

jadidlarimiz hayotini barbod etgan, balki to'ng'ich avlod vakillari uchun ham bo'yinturuqqa aylantirilgani xalqimiz va adabiyotimiz tarixidagi eng fojeali davr bo'lganligi Mustaqilligimizdan keyin oshkor etilmoqda. Bu mash'um davr siyosati va ulug' adiblarimiz ko'rgan nohaqligi fojealarning asl sabab-oqibati haqida A.Oripov armon bilan mushohada yuritib, shunday yozadi: "Ular g'oyat murakkab, g'oyat ziddiyatli, tahlikali bir davrda yashab o'tdi. Mustabid imperiyaning beomon mafkurasi, mustamlakachilik siyosati minglab haqgo'ylar boshini yeyishga ulgurdi, qanchadan-qancha iste'dod egalarining bo'yniga bo'yunturuq solishga erishdi. Nog'orasiga o'ynashni xohlamaganlarni qatl qildi, quvg'in ostiga oldi. Shu tariqa o'zbek xalqi o'zining o'nlab beqiyos farzandlaridan bevaqt ayrildi. Madhiyabozlik adabiyotning ommaviy taomiliga aylangan. ne-ne go'zal tashbehlar, chaqmoqdek misralar somon orasidagi qahrabo bug'doy donalaridek nazardan qolib ketar edi. Ushbu achchiq haqiqatni, ayniqsa, bugungi yoshlar teran tushunmoqlilari kerak." [G'afur G'ulom,2003:6]Shoir va adiblarimizning ong-dunyoqarashi hukmron mafkuraning sinfiylik va partiyaviylik qoliplariga bo'ysundirilgani sababli badiiy-estetik tafakkuri va tanqidchilik saviyasi ham qanchalar zaiflashganini quyidagi oddiy misollar orqali tasavvur qilish mumkin. Hatto hassos shoir va munaqqidlar ham o'sha davrda sho'ro siyosatiga mos, ammo badiiyatdan yiroq satrlarni yetuk she'r deb baholagani bugungi maktab o'quvchini ham taajjublantiradi:

*"SSSRning zavodidan Chiqqan avtobus,
Bos ilgari, yana tezroq Amerikadan o'z"*

Taassufki, deklarativ-shiorbozlik va siyosiy publitsistik chaqiriqdan iborat shu formalistik satrlar "eng muvaffaqiyatli, chiroyli va sotsializm qurilishini kuylashi bilan xarakterli she'r" deb ta'riflanib, undan ibrat olishga undalgan. [Hamid Olimjon,1960:209] Buyuk siymolarga izdosh bo'lgan A.Oripov va E.Vohidovlar avlodi ham davrning mash'um siyosati, mafkuraning zug'umlaridan xalos bo'lmagan va bu muhit iskan jasida ijodkorlar bamisoli "erki yo'q bandi kishan edi. "Sotsializm davrida yozuvchi iskanjada qoldi, xo'rlandi, ezildi, o'zini o'zi ramkaga solib asar yozdi. Antisovet, dissident, qing'ir fikrlovchi nomini oldi. Yozuvchilar sotsialistik realizm quli bo'ldi, qo'g'irchog'i bo'ldi" (Tog'ay Murod) Ammo ularning pok e'tiqodi va metindek irodasi bukilmadi va yuksak ijodiy prinsiplaridan chekinmadi.

A.Oripov E.Vohidovning "Yaxshidir achchiq haqiqat" nomli she'riy to'plamiga so'zboshisida armon-o'kinch bilan:"sho'ro zamonida hukmron mafkuraning sog'lom aqlga to'g'ri kelmaydigan xavfli o'yinlari bo'lardi. "Paxta tersang toza ter, chanog'ida qolmasin..." degan satrlar yetuk she'riyat namunalari deb baholanardi",- deydi. Eng yomoni, bu mafkura ijod erkinligiga yo'l bermas edi.

Hukmron kompartiyaning san'at va adabiyot tabiatiga zid bo'lgan siyosiy qarashlari sotsialistik realizm metodi prinsiplarini mafkuraviy qolip-quyushqonga aylantirishda ham ustuvorlik qilib keldi. Yuqorida ko'rsatilgan ikki tomlik fundamental "Adabiyot nazariyasi"da romantizm va realizm ijodiy metodlariga bag'ishlangan bobida

Moskvada (Rossiya) chop etilgan “*Teoriya literaturi*” (“*Высшая школа*”, 1970) darsligidagi noto‘g‘ri fikr--ma’lumotlar muhim ilmiy-nazariy asos sifatida aynan takrorlangan: “*Романтизм обычно рассматривается лишь как литературное направление, сложившееся в Европе в конце XVIII–начале XIX века*” (232-с.) “*Романтизм ижодий методи жуда мураккаб ходиса бўлиб, у XVIII аср охири- XIX аср бошида Европа ва Америка адабиётуда пайдо бўлди.*” [Adabiyot nazariyasi, 1979:406] Holbuki, romantizm va gumanizmning yuksak bir cho‘qqisi bo‘lgan Nizomiy, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Atoiy, Sakkokiylar ijodi 14-15-asrdayoq shuhrat topgani va 16-asrda realizmning betakror bir namunasi sifatida yaratilgan “*Boburnoma*”dek asarlar dunyo adabiy jamoatchiligiga, ayniqsa, darslik mualliflariga yaxshi ma’lum edi. Nihoyat, Istiqlolimizdan so‘ng darsliklarimiz va tanqid-adabiyotshunoslik sohasidagi bunday mafkuraviy biryoqlamalik va xaspo‘shlashlar barham topmoqda So‘nggi yillar bir guruh katta tajriba-salohiyatli adabiyotshunoslarimizning sa’y-harakati bilan umumta’lim maktablari uchun tayyorlangan “O‘zbek adabiyoti” darslik-majmualari sho‘ro davridagi darslik–xrestomatiyalardan tubdan farq qiladi. Istiqlol tufayli yuzaga kelib, mustabid tuzum mafkurasini tazyiqlaridan xalos bo‘lgan darslik-majmualarning yangi avlodi qator ijobiy fazilatlariga ega. Bu darslik-majmualarda ijod namunalariga ilgarigidek sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan emas, balki san’at asari sifatida yondashish va badiiylik mezonlari asosida o‘rganish ustivor jihatdir. Bunday ijobiy tamoyillar oliy o‘quv yurtlari uchun chiqarilgan yangi darslik - qo‘llanmalarimizda ham asosiy mezonlarga aylanmoqda. Jumladan, N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov va O.Sharafiddinovlar tomonidan yaratilgan “*XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi*” (1999) va B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Ahmedovalarning “*O‘zbek adabiy tanqid tarixi*” (2012) nomli yangi darsliklarida adabiyotimiz rivojiga katta to‘siq bo‘lgan mafkuraviy tazyiq-ta’qiblar asoratini tanqid-adabiyotshunosligimiz ham boshidan kechirganligi achchiq haqiqat ekanligi to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, “*XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi*” darsligida ko‘plab adiblar ijodi yangicha qarashlar asosida o‘rganilgan. Lekin adiblarimizning adabiy-estetik va tanqidiy qarashlari, badiiy mahorati, so‘z san’ati yetarli darajada yoritilgan deb bo‘lmaydi. (Darslik hajmi ham bunga imkon bermagan). Shuningdek, Prof. N. Karimovning “*Istiqlol davri adabiyoti*” (2010) darsligida ham hozirgi adabiyotimizning yetakchi tamoyillari ancha keng yoritilgan. Biroq salkam 400 sahifalik kitobda Istiqlolimiz fidoyilari - Fitrat, Qodiriy va Cho‘lponlar ijodi umuman tilga olinmagan. Asqad Muxtor, Muhammad Yusuf va Tog‘ay Murod kabi iste’dod sohiblari ijodiga ham loqal uch-to‘rt sahifa ajratilmagan. Olimning “*Adabiy portretlar*” (2017) asarida ushbu bo‘shliq qisman to‘ldirilgan.

Professor Dilmurod Quronovning Istiqlol davri tafakkur mahsuli bo‘lib yuzaga kelgan “*Adabiyot nazariyasi asoslari*” (“Akademnashr”, (2018) darsligi ham yangicha talqin-qarashlar va chuqur tahlillar bilan boyitilgan. Hukmron mafkura cheklovlaridan va “vulgar sotsiologizm”, “konfliktsizlik nazariyasi” kabi g‘ayriilmiy dogmalaridan forig‘ bo‘lgan mazkur darslikda qator mavzular keng va izchil yoritilgan. Darslik muallifining mavzu-muammolarni talqin-tahlil etishi va ilmiy-nazariy tushuncha-qarashlarini sodda-ravon ifodalash uslubi ularni qiziqish bilan o‘qilishiga xizmat qilgan. Biroq darslikda badiiy ijod va adabiyotshunoslikning “*Traditsiya va novatorlik*”, “*Adabiy ta’sir*” masalalari bo‘yicha muhim fikrlar bildirilgan bo‘lsa-da, ammo ularga (kitob

hajmi cheklangani uchunmi) alohida bob ajratilmagan. Shuningdek, ushbu darslikdagi quyidagi fikr bahsli tuyuladi: “shakl” va “mazmun” tushunchalarini farqlash adabiy asar tarkibini shu ikki asosga tayangan holda anglash XVIII asr oxiri – XIX- asr boshlarida nemis estetik tafakkurida, xususan, Gegel falsafasida qaror topgan”. Nazarimizda, nemis estetikasi va Gegel tal’imotiga ortiqcha baho berilgan. Zero, adabiyot va san’atda, nazmda ma’no va shaklning bamisoli jon va tanadek yaxlitligi, ularning mutanosibligi badiiyatning eng asosiy sharti ekanligi necha yuz yillar ilgari mumtoz she’riyatimizda va ilmi naqd, ilmi balog’a, ya’ni tanqid-adabiyotshunoslikda ilmiy-nazariy va badiiy jihatdan isbotlab berilgan va bu tarixiy-ilmiy haqiqat jahon adabiy-estetik tafakkurining dasturiy bir qoidasi va mukammal mezon sifatida to’liq shakllangan. Ammo tarixiy haqiqatdan yiroq mafkuraviy qarashlar “ilmi naqd, ilmi g’ariba va ilmi bade’a” bo’yicha mumtoz ilmiy–nazariy va adabiy asarlar mohiyatini keng va xolis yoritishga imkon bermadi. Aslida, badiiy ijod va adabiyotshunoslikning asosiy muammolari, xususan, adabiyot va san’at asari fasohat-mukammalligi uning shakli (surati) va ma’no uyg’unligi bilan belgilanishi, “nazmda asl ma’no” ustuvorligi va bunday teran aqida-qoidalarga ijod jarayonida izchil amal qilingani Rumiy, Sa’diy, Jomiy, Navoiy, Bobur va A.Husayniylar tomonidan ham badiiy, ham ilmiy-nazariy jihatdan hal etib berilgani ayni haqiqatdir.

Nazmda ham asl anga ma’ni durur,

Bo’lsun aning surati har ne durur.

Nazmki ham surat erur xush anga,

Zimnida ma’ni dag’i dilkash anga. (“Hayrat ul-abror”)

Navoiy davri adabiy-estetik tafakkurining o’ziga xos kvintessensiyasini tashkil etgan bunday qarashlar chinakam badiiy ijodning yuksak mezonlaridan biri sanalgan. Bunga Navoiyning shogirdi, XV asrdagi mashhur munaqqid-adabiyotshunos Atoullloh Husayniyning “Badoyi’u-s-sanoyi” kabi asarlari ham yorqin dalil bo’la oladi. Ushbu ilmiy-nazariy asarida 50 dan ortiq shoirlarning she’rlari misolida badiiy ijod va adabiyotshunoslikning asosiy qoida va xususiyatlari yoritilgan. Jumladan, shakl-mazmun yaxlitligi xususida Navoiy qarashlari bilan mushtarak fikrlari bayon etilgan: “alfozning ko’p ozlig’i jihatidin she’rning eng yuk sak martabasi aning qisqasidur va shuning uchunki, alfoz necha oz bo’lsa, she’rning husni ortiqdur”* Bobur ham 16-asrda Mavlono Shayx Husaynning shaklan qisqalik, mazmunan kenglikni ifodalash mahoratini shunday ta’kidlaydi: “kalom ilmini xo’b bilur edi. Oz alfozda ko’p so’z topib, diqqat bilan gufto’gu qilmoq aning ixtiroidir” [Atoullloh Husayniy, 1981:66] fikrlari izoh talab etmaydi. Ammo g’arazli mafkura bosimi ostida yaratilgan darsliklarda bunday birlamchi ilmiy-nazariy, ijodiy manbalarga ko’z yumib kelingan, jiddiy ahamiyat berilmagan. [Hazratqulova E, 2023:232]

Darsliklarimiz va adabiyotshunoslik tadqiqotlarida adabiy ta’sir masalalarini o’rganishda ham sotsialistik inqilobiy g’oya va hukmron partiyaviy mafkura bilan bog’liq biryoqlama qarashlarga duch kelamiz. Aslida, an’anaviylik, adabiy ta’sir adabiyot va san’at rivojining muhim omili va bu jarayon eng avvalo ijodiy xarakterda

bo'lishi bilan ajralib turadi. Ammo uzoq yillar asosiy darslik bo'lib kelgan "*O'zbek sovet adabiyoti tarixi ocherklari*"da ham o'zbek adabiyotiga Gorkiy, Mayakovskiy ta'siri o'ta bo'rttirib yuborilgan: "Davrimizning buyuk shoiri Mayakovskiy o'zbek shoirlarining ijodiy o'sishida katta rol o'ynagan. Mayakovskiy maktabini o'tmagan, undan o'rganmagan bironta ham o'zbek shoiri yo'q desak, xato qilmagan bo'lamiz". [O'zbek sovet adabiyoti tarixi ocherki,1962:720]

Taassufki, adabiyotimizdagi ijodiy izlanish va poetik yangilanishlar ham, asosan, sovet adabiyoti, ayniqsa, Gorkiy va Mayakovskiyning ta'siri samarasi degan talqinlar, sun'iy ko'pirtirishlar urf bo'lgan. Ijtimoiy-siyosiy hayotda bo'lganidek, konfliktsizlik nazariyasi oqibatida adabiyotda ham hayotni bo'yab-bejab tasvirlash keng o'rin oladi va dabdabozlik, deklarativlik, ko'zbo'yamachilik, madhiyabozlik kabi illatlar keng tarqaladi. Adiblarimiz ijodining hayotiy manbalariga ko'proq e'tibor berish o'rniga ularning iste'dodi va o'ziga xosligini kamsituvchi biryoqlama talqin-xulosalar takrorlanib kelindi. Darsliklar va ilmiy tadqiqotlardagi bunday kamchiliklarni bartaraf etish ham, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek, yangi Istiqlol davri adabiyotshunosligimizning muhim vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Adabiyotimiz va tanqid-adabiyotshunosligimizga siyosiy mafkuraning g'arazli munosabati va g'ayriilmiy talqinlarining salbiy oqibatlari endilikda ayon bo'lmoqdaki, bunday qusurlar ham darsliklarimizni konseptual jihatdan yangilash va boyitishga muhim sabab va asosdir.

Ayni vaqtda, "ularga tanqidiy yondashib, foydalanish, yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish, takrorlamaslik, mavjud yutuqlarni rivojlan tirish ilmiy izlanishlarimizning samarali bo'lishi garovidir" (D.Quronov). "Adabiyot nazariyasi" va "Adabiy tanqid" bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarining qamrov doirasini kengaytirish, mazmun-saviyasini boyitish uchun g'oyat muhim adabiy-estetik va ilmiy-ijodiy manba-omillarga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Ya'ni Navoiy davri va keyingi asrlarda ustuvor an'ana bo'lganidek, XX asr va Istiqlol davridagi yetuk shoir va adiblarimizning tanqid-adabiyotshunoslikka oid sinkretik (qorishiq) asarlaridan, adabiy-estetik qarashlari, ilmiy-nazariy fikrlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa, Navoiy ijodiy an'analarni davom ettirgan ulug' jadidlarimiz va Oybek, G'.G'ulom, Anqaboy, O.Hoshim, H.Olimjon, Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir, A.Muxtor, P.Qodirov, E.Vohidovlarning tanqid-adabiyotshunoslik sohasi dagi faoliyati ko'p jihatdan ibratlidir. Chunonchi, Abdulla Qodiriyning milliylik va til mahorati bo'yicha teran maqolalari va "g'araz, nafsoniyat va shaxsiyat dardlaridan toza" tanqidga bergan yuksak ta'rifi bugun ham adabiyotshunosligimiz uchun dasturilamal bo'la oladi: "Hayotning yangidan-yangi muvaf faqiyatlariga boshlovchi, ma'rifat degan muammoning kaliti, madaniyat dunyosi beshigi tanqiddir".* Ulug' Navoiyning hayotbaxsh va ilhombaxsh ijodiy an'analarni davom ettirgan adib va adabiyotshunoslarimiz haqiqiy tanqidning muqaddas burchi, eng avvalo, shoir va adib iste'dodini uni kashf etish, qadrlash va ayni vaqtda, adabiy jarayondagi yetakchi tamoyillarni va yangi asarlarni badiiylik mezonlari asosida chuqur tahlil etishdan iborat bo'lmog'i lozim deb uqtirishar edi. Ammo ayrim adiblarning an'ana va novatorlik mohiyatini chuqur anglamay, folklorimizdagi yuksak san'atkorlikni yoxud Navoiy va jahon adabiyoti vakillarining badiiy

mahoratini ijodiy o‘zlashtirish o‘rniga taqlidchilikka berilishi 20-30-yillardayoq Qodiriy va Qahhor tomonidan kuyunchaklik bilan ko‘rsatib berilgan. Ularning o‘sha davr she‘riyatida paydo bo‘lgan formalizm (futurizm) kabi shaklbozliklarning noxush oqibatlaridan ogoh etgan ta’sirchan adabiy-tanqidiy maqolalari va ilmiy-nazariy qarashlari ham darsliklarimizda o‘zining munosib bahosini olgan deya olmaymiz. Qodiriy va Qahhor kabi ulug‘ adiblar ijodi va adabiy-tanqidiy merosi XX asr adabiyoti va tanqidchiligi tarixi, tadrijiy taraqqiyot yo‘lini keng yoritishga ham imkon beradi. Ularning taqriz-maqolalari “yozuvchilik mahoratining eng muhim jihati bo‘lgan inson ruhiyatini chuqur yoritish, badiiy til va tasvir, janr xususiyatlari” kabi jahon adabiyotshunosligining asosiy adabiy-nazariy muammolarigacha qamrab olganligi bilan ham dolzarbligini yo‘qotmay keladi.[Umurov,2007:289] Abdulla Qahhorning 60-yillar sobiq sovet davridagi eng nufuzli adabiy jurnalda nashr etilgan va adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otgan “*Hayot hodisasidan badiiy to‘qimaga*” nomli birgina maqolasida ham yosh ijodkorlar uchun etuk asarlar yaratish bilan bog‘liq ijod jarayonining nozik qirralarini yorituvchi ko‘plab hayotiy-badiiy kuzatishlar va teran adabiy-nazariy fikrlar keltirilgan”. [Umurov,2007:31] Adabiyotshunoslar ta’kidlaganidek, ular yosh adiblarga ijod sirlarini anglatib, adabiyotimiz ravnaqi yo‘lida ta’sirchan omil bo‘lib kelmoqda. Yoxud adabiyotimizning o‘rta avlodi vakillari hamda zamondosh shoir va adiblarimizning boy ijodi kabi adabiy-tanqidiy asarlari, teran fikrlari ham, shubhasiz, darsliklarimiz mazmuni va ilmiy-nazariy asos-manbalarini behad boyitadi. Darslik-qo‘llanmalarimizda ilmiy-adabiy merosimizga nisbatan yo‘l qo‘yib kelingan yana bir noqislik to‘g‘rilanishi lozim. Nashriyotlarning texnik imkoniyati cheklangani boismi mumtoz o‘zbek va fors-tojik adabiyoti, ayniqsa, Navoiy va unga izdosh bo‘lgan shoir-allomalar ijodida takomillashgan kitobat-harf san’atining (arab alifbosi harflari imlosiga asoslangan) noyob namunalari ham e’tibordan chetda qolib kelyapti. Ushbu kemptiklik ham to‘ldirilsa, darsliklarimiz mazmun-mundariyasi yanada mukammallashgan va talabalarning mumtoz she‘riyat poetikasi bo‘yicha bilim-tasavvurlari ham kengaygan bo‘lar edi.

Darsliklarimizdan tashqari adabiyotshunoslikning dolzarb mavzulariga bag‘ishlangan yirik ilmiy tadqiqotlarda ham “Adabiyot nazariyasi”ga doir ba’zi muammolarni o‘rganishda bahsli talqin-xulosalar uchraydiki, ularga ham munosabat bildirish, zarur aniqlik kiritishga ehtiyoj seziladi. Yosh professorlarimizdan Sanobar To‘laganovanning “Ijodkor shaxsi va qahramon muammosi. Abdulla Qodiriy ijodi misolida” nomli doktorlik dissertatsiyasi o‘zining yangi talqin-tahlillari bilan adabiyotshunosligimizda muhim ahamiatga ega. Ammo 2019-yili poytaxtimizdagi eng nufuzli Ilmiy kengashda muvaffaqiyatli yoqlangan ushbu dissertatsiyadagi ayrim xulosalar e’tiroz uyg‘otadi. Ya’ni “Sotti Husayn Abdulla Qodiriy romanini tanqid qilishni boshlab berdi va bu maqolasi bilan butun adabiyot rivojini noto‘g‘ri yo‘lga solib yubordi” degan mahobatli xulosaga qo‘shilish qiyin. Yoki “Afsuski, bugun turli yo‘llar orasida qolgan milliy adabiyotimizga yo‘qotilgan shaxslarning avlodi vorislik qilib turganligi achinarli hol”,-degan fikrlar ilmiy-nazariy va tarixiy jihatdan asoslanmagan, sub’ektiv bir mulohazaday noxush taassurot qoldiradi. Zero, dunyo miqyosida munosib o‘rin egallagan zamonaviy adabiyotimiz, buyuk ustozlar va fidoiy jadidlarimizning betakror ijodiga haqli voris-izdosh bo‘lgan iste’dodli shoir-yozuvchilarimizning yorqin ijodini va samarali kechayotgan adabiy an’anaviylikni achinarli hol deb

baholash o‘ta nomaqbul, havoyi bir xulosa. ”Xalqlar otasi”-Stalinga maktub yozgan G‘afur G‘ulom kabi shoir-adiblarimiz yo‘qotilgan shaxslarmi? Ularga nomunosib vorislik qilib turgan avlod deb kimlar nazarda tutilgan?.. Yoshlarimizni ham chalg‘ituvchi bunday dudmal fikrlar muazzam bir dargohning oliymaqom Ilmiy kengashidagi nuroniy akademiklarimiz va atoqli adabiyotshunoslarimizning sinchkov nazaridan chetda qolganligi ham taajjublanarli va afsuslanarlidi. Shuningdek, taniqli adabiyotshunos Normat Yo‘ldoshevning ”*Cho‘lpon she‘riyati poetikasi va janrlari*” (2024) nomli zalvorli tadqiqotida she‘riy shakllar va vaznlar, asosan, to‘g‘ri tasniflangani holda “Bag‘ishlov janri o‘zbek she‘riyatiga rus va Yevropa adabiyotidan kirib keldi va Oktyabr revolyut siyasidan keyin rivoj topdi” degan xulosasi nazariy jihatdan bahsli ko‘rinadi. CHunki birgina Navoiyning Said Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad, Jomiy va sulton Husayn Boyqarolarga bag‘ishlangan asarlari yoxud Jomiy vafoti (1492) munosabati bilan bitgan mashhur marsiya she‘ri “bag‘ishlov” janrining yetuk namunalari ekanligi isbot talab etmasa kerak.

XULOSA

Yoxud taniqli olimlarimiz yaratgan va qayta nashr etilib, bugungi kunda ham foydalanib kelina yotgan *”Adabiyotshunoslikka kirish”* (1984) darsligi ham janrlar xususida ba’zi noaniqliklardan xoli emas. Ushbu darslikda ruboiy janri haqida to’g’ri nazariy tushuncha berilgan. Biroq tahlil o’rnida ruboiy navislikda mashhur mumtoz shoirlar ijodidan emas, balki Ramz Bobojonning barmoq vaznida yozilgan *“Shoshganda vaqt etmasligi qiziq”* kabi odmi satrlardan iborat o’rtamiyona to’rtligi ruboiyning etuk namunasi sifatida taqdim etilgan. Shuningdek, darslik-qo’llanmalarimizda so’nggi yillar she’riyatimizdagi yangi poetik shakllar yoxud publitsistika, badiia-esse, maktub (insho) janrlari, voizlik-notiqlik san’ati ham ilmiy-nazariy jihatdan yetarli darajada tavsiflangan va o’rganilgan deb bo’lmaydi.

Xulosa qilsak, darsliklar, adabiy janrlar ham davr va badiiy-estetik tafakkur rivoji bilan bog’liq ravishda o’zgarib, yangilanib boradi va takomillashadi. So’nggi yillar va Istiqlol davrida milliy nasrimizdagi yangilanishlar kabi lirika sohasida ham qator yangi she’riy turkumlar yaratildi. Ushbu she’riy asarlarning janr xususiyatlarini yoritish, shakliy-kompozitsion jihatlari, badiiy-estetik funksiyalari kabi poetika muammolari darslik-qo’llanmalarda ham aks etishi lozim. Binobarin, tanqid-adabiyotshunoslik sohasidagi ijodiy izlanish va tadqiqotlar bilan birga darsliklarimizni mukammallashtirish borasidagi orzu-intilishlar, ilmiy-uslubiy va nazariy qarashlar ham muttasil davom etishi tabiiy. Bulardan muddao shuki, buyuk adib-mutafakkirlar orzu qilganlaridek, yoshlarimiz darsliklar oraqli kitobga, adabiyotga ko’proq mehr qo’ysalar. Toki adabiy asarlardagi barcha ma’naviy boylik va go’zallikni chuqur anglab-ardoqlay oladigan bo’lsa. Kitobxon yoshlarimiz haqiqat, adolat, vijdon, to’g’rilik degan muqaddas tushuncha va qadriyatlarni aqlangina emas, qalban his eta oladigan va kreativ fikrlaydigan bo’lsinlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- Atoulloh Husayniy. 1981.65-66-b. Badoyi’u-s-sanoyi’. Adabiyot va san’at nashriyoti.-Toshkent.
- Adabiyot nazariyasi. 1979. 2-tom, 406-b -Toshkent.Fan.
- Hamid Olimjon. 3-t.1960.-209-b.Adabiyotimizning tikka ko’tarilish davrida. Asarlar.
- Hazratqulova E. 2023.-232 b. Bobur - adabiyotshunos. Andijon nashriyot-matbaa.
- Mirziyoev Sh. 2019-y. 9 fevral. Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi.Toshkent. Xalq so‘zi.
- Mirzayev S.,Doniyorov X. 1967. 7-b. O‘zbek sovet adabiyoti. -Toshkent.”O‘qituvchi”.
- Normatov U. 1967. 160-167-b. Adabiyotimizning yarim asri. Toshkent.
- Umurov H. 2007.-202, 275-289-bb. Adabiyotimiz faxri.-Toshkent.
- Umurov H. 2007.-31-b. Adabiyotning ishi yaratishdir. - Adabiyotimiz faxri.Toshkent.
- Xudoyberganov N, Rasulov A. 1990.-37-b. O‘zbek sovet adabiy tanqidchiligi.-Toshkent.- ”O‘qituvchi”.
- O‘zbek sovet adabiyoti tarixi ocherki. 1962, 1967. 720-b 2-t., Toshkent.Fan nashriyoti.
- G‘afur G‘ulom.2003.6-b.Abdulla Oripov. O‘zbekning o‘z shoiri. Tanlangan asarlar.Toshkent.